

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA KITOBOT SAN'ATINING QO'LLANILISHI
(“Alif” misolida)

Narzullayeva Iymona Sadriddin qizi

SamDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi.

Tohirov S.Q.

Ilmiy rahbar: SamDU f.f.n., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11429545>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy she'riyati va “G'aroyib us-sig'ar” dostonida qo'llanilgan “Alif” kitobot san'atining ma'no turlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, G'aroyib us-sig'ar, kitobot (xat) san'ati, xurufiylik ta'limoti, Alif.

THE USE OF BOOK ART IN THE POETRY OF ALISHER NAVOIY
(in the example of "Alif")

Abstract. This article analyzes Alisher Navoi's poetry and the meaning types of "Alif" book art used in the epic "Garayib us-sigar".

Key words: Alisher Navoi, Garaib us-sigar, the art of kitobat (lettering), teaching of superstition, Alif.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КНИЖНОГО ИСКУССТВА В ПОЭЗИИ АЛИШЕРА НАВОЯ
(на примере «Алифа»)

Аннотация. В данной статье анализируется поэзия Алишера Навои и смысловые типы книжного искусства «Алиф», использованные в эпосе «Гараиб ус-сигар».

Ключевые слова: Алишер Навои, Гараиб ус-сигар, искусство китобата (письма), учение суеверий, Алиф.

Mumtoz adabiyot namunalari o'zining badiiy san'atlari bilan bugungi kungacha adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Shunday badiiy sanatlardan biri kitobot san'atidir. Kitobot san'atidan foydalanmagan mumtoz adabiyot vakillari uchramasa kerak. Biz Alisher Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Bobur, Gadoiy, Ogahiy kabi ijodkorlarning asarlarida kitobot san'atining go'zal namunalarini uchratishimiz mumkin.

Kitobot san'ati yoki xat san'ati - arab alifbosi harflari shaklidan lirik (epik) timsollar chizishda, poetik obraz yaratishda foydalanish usulidir. Ma'lumki, arab harflari tik va egri shakklardan tashkil topgan. Shunga xos tarzda, tik qomat alifga, egik qomat dolga, egrilik lomga qiyoslanadi. Mumtoz adabiyotda “Alif” badiiy san'at turi sifatida qo'llanilib yorning tik qomatini ifodalasa, xurufiylik ta'limotiga ko'ra esa “Alif” Allohning mutloq toqligidan dalolat beradi. Abjad hisobida ham alifning qiymati birga tengdir.

“Alif” birlik va fardlikni ifodalaydiki, bu orqali Ollohga ishorat aylash mumkin. Zero, barcha harflar bir harfda mujassam erur. Chunki (!) “alif” bukilib (‐) “dol”ni, yana boshqa shaklga kirib (‐) “ro”ni hosil qiladi, uning ikki uchi bukilganda (‐) “be” harfi, chuqr shaklida esa (‐) “nun” harfiga aylanadi. Demak, barcha xarflarni “alif”da ko'rmoq mumkin bo'lganidek, jami mavjudotda ham Ollox zuhr topgan. Ammo “alif”ni o'zga hech bir harfda aynan ko'rish mumkin emas.[3,24]

Davr xam qildi qaddingni, go'shaye tut, yo'q aso,

Negakim, dard-o‘q bo‘lur zohir alif yondashsa dol[2]

Bu misra orqali alifning bukilishidan dolga aylanishi nazarda tutilyapti. Bundan tashqari hurufiylik ta’limotiga ko‘ra inson yuzi ham arab harflariga qiyoslangan. Jumladan, insonning burni – alif (ا)ga, ko‘zлari – sod (ص) yoki ayn (ع)ga, tor va kichik og‘zi – mim (م)ga, soch kokillari va zulflari – dol (د)ga, qoshlari – nun (ن)ga qiyoslangan. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, na’t xarakterida yaratilgan she’rlarda “alif” – Hazrati payg‘ambarning bo‘yiga qiyoslangan. Arab alifbosidagi ikkinchi harf “be” ham Hazrati payg‘ambarni ifodalagan. Jumladan,

Ey alifdek qomating mayli buzulg‘an jon aro

Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro.[2]

Navoiyning na’t g‘zalida ham Hazrati payg‘ambarning bo‘ylari “alif”ga qiyoslangan. Ammo “buzulg‘an jon aro” deya ta’riflanmoqda. Hurufiylik ta’limotiga ko‘ra “alif” Alloho ni ifodalasa, arab alifbosidagi ikkinchi harf “be” esa Hazrati Muhammad (s.a.v.)ni ifodalaydi. Barcha harflar “alif”dan kelib chiqqanligini inobatga olsak, “alif”ning qomati buzilib, ya’ni ikki uchi bukilib “be”ni hosil qilishi orqali Hazrati payg‘ambarga ishora qilinyapti.

Alisher Navoiy she’riyatida alif ham badiiy san’at, ham hurufiylik g‘oyalarini ifodalab kelgan. Jumladan, Alisher Navoiy o‘zining 62 she’rida “Alif” harfiga murojaat etadi, shundan 36 she’ridagi “alif” orqali Alloha ishora qilinadi. Qolgan 26 she’rida esa poetik timsol sifatida qo‘llanilgan. Alisher Navoiy kulliyotida “alif”ga eng ko‘p “G‘aroyib us-sig‘ar” dostonida murojaat qilingan. Jumladan, dostonning 33 ta g‘azalida va 2 ta ruboysiida “alif” harfiga murojaat qilingan.

Ko‘ksuma na’lu alif tarxi imorat shaklidur,

Tashqari ham yetti ishqing mulkiga devori past.[1,70]

Allohnинг go‘zal, hammadan ustun va ulug‘ mavjudoti insondir. Xoliqi olam unga sharaf, yuksalish tojini ato etdi va qalbiga “Alloh” deya ilohiy muhr qo‘ydi. Mutafakkir shoir ta’biricha, bu “tarxi imorat shakli”, ya’ni ushbu na’l (tamg‘a) Xoliq (Alif)ning o‘z maxluqotiga qo‘ygan ilohiy imzosidir. Baytning ikkinchi misrasida inson yaratilishining yetti bosqichi inobatga olingan bo‘lib, bunda ishq bir xazina, mulk sifatida, uning o‘rnii esa qalb deya e’tirof etilgan. Ishq mulkini tutib turuvchi qalb devor (inson tanasi) bilan ihota etilgan. Ushbu devorning yetti bosqichli ekanligini Qur’oni Karimdagagi “Mo‘minun” surasining 13-14-oyati karimalarida o‘qiyimiz: “Biz insonni loyning sarasidan yaratdik, so‘ngra uni nutfa qildik, so‘ngra bu nutfani laxta qon qildik, bas parcha go‘shtni suyaklar qilib yaratib, bu suyaklarga go‘sht qopladi, so‘ngra unga jon kirgizib, odingi holidan butunlay boshqacha bir vujudni paydo qildik...”.

Alisher Navoiy ham “Alloh insonni o‘z suratida yaratdi” hadisidan ilhomlanib, g‘azallar bitgan:

Yoshurun husnungda bir onedururkim, jon aro,

Ham alif ham na’l uza dog‘im erur andin nishon.[2, 347]

Quyidagi baytni ham ayni shu ma’noda ifodalash mumkin:

Bormudur ko‘nglumda keskan ham alif, ham na’lu dog‘,

Yo bu mir’ot ichra solg‘an aks husnung onidur.[2]

Shoir ritorik so‘roq orqali qalbida Allah (alif) va Allah tamg‘asining dog‘i (na’l) bormi deya turib, yoki bu mir’ot ya’ni ko‘ngil ichra solgan husning aksimi deya so‘rayapti.

Alisher Navoiy “alif” va “dol”ni qarshilantirib tazod san’atini vujudga keltirgan:

Firoq ichra alifdek qaddima g‘am tog‘ini yuklab,
Uhud tog‘idagi dol etsa jismi notavonimni.[1]

Bu misrada alifdek (tik) qomatning ayrliqda g‘am tog‘i yuklanib, doldek (egilgan) qomatga aylanganligi aytib o‘tilyapti. Uhud tog‘idagi doldek deyilganda uhud (عُد) so‘zidagi dol harfiga ishora erilyapti.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan badiiy san’at turlaridan biri hisoblangan kitobot san’ati o‘ziga xos poetik obraz yaratishda qmuhim vazifani bajaradi.

REFERENCES

1. Алишер Навоий. МАТ. II том. – Тошкент, Фан, 1987
2. Алишер Навоий. МАТ. III том. – Тошкент, Фан, 1988
3. Амонова З. Қ. Хуруфийлик ва ўзбек мумтоз адабиёти. Монография. Lambert Edit. – Германия, 2019
4. Qur’oni Karim. O’zbekcha izohli tarjima (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). – T.: Cho’lpon, 1992.